O‘ZBEK-FORS-TOJIK ADABIYOTINING RIVOJIGA HISSA QO‘SHGAN MA’RIFATPARVAR SHOIRA

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i06.053

M.Jamoliddinov
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada XIX asr va XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma’rifatparvar shoira Dilshodning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida fors-tojik adabiyotining tutgan o‘rni, ikki xalqning asrlar davomidagi yaqin madaniy va adabiy aloqalari ta’kidlanadi. Dilshod o‘z asarlarini o‘zbek va tojik tillarida “Dilshod” hamda “Barno” taxalluslari bilan yozgan bo‘lib, uning “Sabotul bashar”, “Tarixi muhojiron” asarlari va lirik merosi bugungi kungacha yetib kelgan. Shoira hayotining og‘ir kechmishlari - yetimlik, asirlik, hijrat kabi voqealar uning ijodida o‘z aksini topgan. Maqolada, shuningdek, Dilshod ijodini o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlar - A.Muxtorov, A.Qayumov, S.Erkinov, F.Xusanova, M.Qodirova kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga ham to‘xtalib o‘tiladi. Shoira hayotining ibratli jihatlari - mardlik, vafodorlik, sadoqat va ma’rifatparvarlik kabi fazilatlar yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Dilshod, Ma’rifatparvarlik, Fors-tojik adabiyoti, “Tarixi muhojiron”, Taxallus, XIX-XX asr o‘zbek adabiyoti

AN ENLIGHTENING POET WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN-PERSIAN-TAJI LITERATURE

M.Jamoliddinov
Kokand State University

Abstract: The article analyzes the life and creative heritage of the enlightening poet Dilshod, who lived and worked in the 19th and early 20th centuries. The role of Persian-Tajik literature in the formation and development of Uzbek literature, the close cultural and literary ties of the two peoples over the centuries, are emphasized. Dilshod wrote her works in Uzbek and Tajik under the pseudonyms "Dilshod" and "Barno", and her works "Sabotul Bashar", "History of Migrants" and her lyrical heritage have survived to this day. The difficult experiences of the poet's life - such events as orphanhood, captivity, and emigration - are reflected in her work. The article also touches upon the scientific works of such scholars as A.Mukhtorov, A.Qayumov, S.Erkinov, F.Khusanova, M.Kodirova, who contributed to the study of Dilshod's work.

(cc) BY

The exemplary aspects of the poet's life - such qualities as courage, loyalty, devotion and enlightenment - play an important role in the upbringing of the younger generation.

Keywords: Dilshod, Enlightenment, Persian-Tajik literature, "History of the Emigrants", Pseudonym, Uzbek literature of the 19th-20th centuries

O‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida fors-tojik adabiyotining o‘rni beqiyos, katta. Chunki asrlardan-asrlarga har ikki avlodlari yonma-yon, do‘st-inoq, quda-anda bo‘lib yashashdi. Urf-odat, qadriyat marosimlari bir-biriga uyg‘un holda rivojlanib kelyapti. Ayniqsa, ularning ongi, dunyoqarashining o‘zgarishida adabiyot, san’at, madaniyat asosiy vosita hisoblanadi. Jumladan, XIX asr va XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoira Dilshod hayoti va ijodini o‘rganish uning shaxsiy hayot yo‘lidagi mardlik, vafodorlik, sadoqat, ma’rifatparvarlik kabi yuksak tuyg‘ularni yosh avlod tarbiyasi yo‘lida ibrat namunasi qilib ko‘rsatish adabiyot va pedagogika fanining muhim shartidir.

Ma’rifatparvar Dilshod o‘z asarlarini o‘zbek va tojik tillarida “Dilshod” va “Barno” taxalluslari bilan yozdi. Uning ijodiy merosini izlash va tatbiq etishda tojikistonlik olim va tarixchi A. Muxtorovning xizmati katta. Bundan tashqari o‘zbek adabiyotining bilimdonlari A. Qayumov, S. Erkinov, F. Xusanova, M. Qodirova va boshqa tadqiqotchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida shoira ijodi, merosi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Xususan, adabiyotshunos Mahbuba Qodirova 1994-yilda Dilshod, Anbar Otin (T.: Fan, 1994) asarlarini kitobxonlarga o‘zbek tilida taqdim etdi.

Dilshodning “Sabotul bashar” hamda “Tarixi muhojiron” (“Inson matonati” va “Muhojirlar tarixi”) tojik tilidagi “Tarixi muhojiron” va har ikki tilda yozilgan lirik merosi bizgacha yetib kelgan.

Shoiraning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar qo‘qonlik shoir Rojiyning “Muntaxab ul-ash’ori Dilshod” kitobida hamda o‘zining “Tarixi muhojiron” asarida bayon etiladi. Jumladan, Dilshod 1800-yilda O‘ratepaning Miri Muron mahallasida tug‘iladi. Otasi Rahmonqul shoirtabiat kishi bo‘lib, O‘ratepada olib borilgan janglarning birida halok bo‘ladi, onasi esa 1813-yilda vabo kasalligidan vafot etadi. 14 yoshidan ota-onadan yetim qolgan Dilshod uyida 90 yoshli katta bibisi bilan ip yigirib kun kechiradi. Qo‘qon xoni Umarxonning 1816–1817-yillarda O‘ratepaga qilgan yurishida 17 yoshlik Dilshodni asirlar bilan Qo‘qonga haydab olib keladilar. “Yov bosqonda Katta bibijonim meni jag‘orag‘a yashirg‘on edi. Xon sarbozlari meni jag‘oradan chiqozib oldi, meni haydab galaga qo‘shdilar... O‘sha kuni xalq orasida 13400 odam asirga olindi... Farg‘ona amiri Umarxon o‘zi olim va katta shoir bo‘la turib, bu mazlum shaharning birorta olim va shoiriga rahm qilmadi”, - deb yozadi shoira.

(cc) BY

“O‘zining go‘zalligi va nozik tabiati bilan ajralib turgan Dilshodni uch kundan keyin yuvintirib, kiyintirib Umarxon huzuriga olib kiradilar. Xon Dilshodning shoiraligini bilib, uni sinab ko‘rmoqchi bo‘ladi va xontaxta ustida turgan bir anorni ko‘rsatib:

- Bu anorga ne deyursan? - deb savol berdi.

G‘azablanib turgan Dilshod:

- Ichin qonga to‘ldiribsan, - deb javob qiladi.

Xonning g‘azabiga uchragan shoira saroydan haydaladi. U Qo‘qonning Xoji Kalon mahallasida yashovchi maktabdor ayolning uyida boshpana topadi va biroz kundan so‘ng uning 50 yashar o‘g‘li masjid imomi Tosh Maxdumga turmushga chiqadi. Dilshod bu yerda qaynonasidan turkiy lahjani mukammal o‘rganib, o‘zbek qizlariga dars bera boshladi va o‘zi ham o‘zbek tilida she’rlar ijod etdi. Qaynonasi 99 yoshida vafot etadi. Tosh Maxdum esa Dilshod 50 yoshda ekanligida dunyodan o‘tadi. Dilshodning 8 farzandidan ikki o‘g‘il va bir qiz hayot qoladi xolos.

Dilshod ma’rifatparvar shoir, o‘zining butun umrini qizlarni o‘qitish bilan maktabdorlik qildi va ma’rifat tarqatdi. “Hamdam va hamsuhbatlarim zehnli shoira qizlar bo‘lib, 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a’lo va o‘rta o‘quvchilardan doim 20 va 30 qiz ta’lim olar edilar. 891 qizni savodli qilib chiqardim. Ulardan yaqin to‘rtdan bir qismi tab’ nazmi bor shoira, oqila qizlar edi”, - deb yozadi. Dilshod otin o‘z shogirdlarini buyuk so‘z san’atkorlari Hofiz, Bedil, Navoiy asarlari bilan tanishtirgan va ularda adabiyotga mehr uyg‘otgan. Dilshod Otinning guvohlik berishicha, uning maktabidan Anbar Otin, Bahri Otin, To‘tiqiz, Xayriniso kabi bir qator talantli shoiralar yetishib chiqdi. Ayniqsa, Anbaroy haqida alohida to‘xtalib o‘tib: “Men kamina hamma vaqt bu qizning katta shoira bo‘lishini umid qilaman. Sababi shuki, Anbaroy ilm mushohada qilish paytidan boshlab xalq ahvoli va hukmronlik tartiblarining yetishmovchiliklarini sinchiklab ko‘rib fikr yuritar edi”.

Shoiraning 42 ta she’ri mavjud. Bulardan 36 tasi o‘zbek tilida yozilgan. 17 ta g‘azalga Dilshod, 22 ta g‘azalga Barno taxalluslarini qo‘ygan. Shoiraning ta’kidlashicha, 2 mingdan ortiq g‘azal bitgan.

Hozirda shoiraning 142 she’ri ma’lum, xolos. Bundan 80 tasi o‘zbek tilida, 62 tasi tojik tilida. Shoira ijodida g‘azal, mustazod, muxammas asosiy o‘rinni egallagan.

Dilshod she’rlarida vatanparvarlik, ma’naviyat, ma’rifat, axloq-odob va tarbiya masalalari alohida o‘rin tutadi. Shoira adolat va adolatsizlik, zulm, bosqinchilik, kambag‘al miskinlarga shafqatli bo‘lish, Vatan, oliyjanoblik va ilohiy ishqni tarannum etadi.

Jannatu do‘zax barobar oshiqi zor oldida,
Anga muqaddasdur faqat bir “ka’si anvorul-hudo”
yoki
Saning dargohingda man yolborurman rabbano ollo,

(cc) BY

Duo qilsam, ijobat qil elim haqida har yaldo.

Dilshod Navoiy ijodi va uning me’rosi bilan mukammal tanishadi va shoir g‘azallariga muxammas bog‘laydi:

Anbar Barno g‘azalxon bo‘lmoq istar,
Navoiy piyr deb, niyat erur farz.

Shoira lirikasining mavzusi rang-barang, tili sodda va ravon. Kitobxon har bir g‘azalni o‘qir ekan, turkiy tilning go‘zalligidan hayratlanadi. Badiiy san’at ustalaridan foydalanib g‘azal yaratish mahoratiga tan beradi.

Qalam tekizma qoshingga buzilmasun bu xat,
Falakdin oy misoli uzilmasun bu xat.
Qoshingni ko‘rsatub oyga, xijolat etma ani.
Yuzingda doir shakli suzilmasin bu xat.

Dilshod Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan ko‘pgina shoiralari bilan “hamkasb”, “hamfikr”, “maxfiy” sirdosh bo‘lgan. Ular bilan adabiy uchrashuvlar va yozishmalar qilib hamsuhbat bo‘ladi. Xususan, Mahjub, Muntazir, Gulxaniy, Mahzaniy, Turobiy, Bahoriy, Fidoiy, Bog‘dor Eshon Nizomiy, Mahinbonu, Hafiza otin, shoir Sabutiy va boshqalar. Ammo shoira ularning og‘ir hayoti, qiyin turmush tarzidan achinadi. Jumladan, Gulxaniy “gulaxda makon tutar edi. Bu kishining Gulxaniy bo‘lishlariga qaramasdan e’tiqodli muxlislari ko‘p edi. Ne choraki, ular gulaxda, kamina uy burchida bandi qafasdurmanki, bu ham xalq irodasining taqdir bilan bartaraf bo‘lar”, - deb ularning hayotiga achinadi.

Ammo Qo‘qon adabiy muhitining yetuk shoirasi bo‘lgan Nodira haqida shunday yozadi: “Bundan tashqari men shoira ojiz va notavon o‘rdadan chiqqanimdan keyin ikki yil o‘tgach bildimki, u yerda Farg‘ona mulkining malikasi, she’riyat saliqa va taronasining sohibasi, ya’ni Nodirai Davron va zamonasining ko‘zga ko‘ringan shoirasi hayot ekanlar. U kishi bilan diydor ko‘rishishga ko‘p harakat qildim, ammo muyassar bo‘lolmadim”.

Demak, Dilshod shoira Nodira bilan uchrashmagan.

Xullas, Dilshod o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos ijodkor sifatida ma’rifatparvar o‘ringa ega. Uning ijodini ilmiy ravishda o‘rganish va merosini tadqiq etish kelgusida asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Dilshod. Anbar Otin” tuzuvchi M. Qodirova “Fan” 1994.
2. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. Besh tomlik T. “Fan” 1980-y.
3. Uvaysiy “Ko‘ngil gulzori”. T.F.F nashriyoti 1983.

(cc) BY